



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodiy ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

12.01.2022 йил

Beshariq tuman
Tibbiyot birlashmasi

XULOSA

(Tibbiyot birlashmasining 6-sonli
shartnoma loyihasiga)

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Neft mahsulotlari yetkazib berish to'g'risidagi № 6-sonli shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022 yil 12 yanvar kuni ishlab chiqilib 2022 yil 12 yanvar kuni markazga taqdim qilingan.

4.Loyiha bo'yicha taklif: Beshariq tuman tibbiyot birlashmasi hamda "Farg'ona neft bazasi" ma'suliyati cheklangan jamiyati Qo'qon filiali o'rtasida neft mahsulotlari yetkazib berish to'g'risidagi № 6-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 22-bandida Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yoqilg'isi va ko'mir mahsulotlarini sotib olish uchun to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Shartnoma loyihasiga "Farg'ona neft bazasi" ma'suliyati cheklangan jamiyati Qo'qon filialining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga egaligini tasdiqlovchi Guvohnoma va Ustavi ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Yuqoridagilarga asosan mazkur shartnoma loyihasini tuzish amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti:



F.Jo'rayev